

BOYSUN TUMAN ORONIMLARI TARKIBIDA ISHTIROK ETADIGAN ORONIMIK INDIKATORLAR BO'YICHA AYRIM MULOHAZALAR

Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari



Zohirjon Kenjayev,

Termiz davlat universiteti

o'zbek tilshunosligi kafedrasи o'qituvchisi

kenjayevz@tersu.uz

Annotation: Ushbu maqolada Boysun tuman oronimik tizimida uchrovchi ayrim oronimik indikatorlar to'g'risida va shu indikatorlar bilan hosil qilingan oronimlar haqida ma'lumot berilgan.

Keywords: geografik termin, sheva, oronim, dara, jar, band, qo'shma tarkibli, ko'tal, oronimik indikator

Аннотация: В этой статье представлена информация о некоторых оронимических индикаторах, встречающихся в оронимической системе района Бойсун, а также об оронимах, образованных этими индикаторами.

Ключевые слова: географический термин, диалект, ороним, ущелье, овраг, группа, составной, подъем, оронимический индикатор

Annotation: this article provides information about some oronymic indicators found in the Boysun district oronymic system and about the oronyms formed by these indicators.

Keywords: geographical term, sheva, oronim, dara, jar, band, compound composition, cough, oronimic indicator



Geografik terminlar hududning tabiatini, geografiyasini, tarixini, etnografiyasini, tilini – dialekti va shevalarini haqida ma'lumot beruvchi lisoniy manbadir. O'zbek tili geografik terminologiyasida orografik terminlar ham salmoqli o'rin tutadi¹.

Masalan, P.G'ulomovning geografik terminlar lug'atida aydar, aqba // aqaba, ag'dol, bel, bet, gaza, dara, darband, darvoza, dahan, dovon, yollar, yolg'iz tog', yona, yonartog', yonbag'ir, yopiq g'or // ko'r g'or, jabal, jingalak qoya, jong'oq, jo'na // jo'n, zov, kungay, ko'tal, marja // marza, mag'ora // g'or, muz g'ori, mo'ynoq, olatog', osilma, oftobro', och gaza, oshuv, past tog'lar, pila-pocha, sangir, tepa, tosh, tog', tog' og'zi, tog' tizmalari, tumshuq, uval, ungur, uchma, cho'qqi, yassi tog'liq, qadimgi tog'lar, qashqa, qir, qoratog', qoya, qo'l, g'or kabi² 50 dan ziyod shunday birliklar izohi berilgan .

Geografik terminlar qo'shma tarkibli oronimlarni hosil qilish bilan birga, oronimik obyektning turini ham ifodalash uchun qo'llaniladi. Hozirgi o'zbek adabiy tili, xalq shevalariga xos oronimik indikatorlarni to'plash, ularni ma'lum bir sistema asosida leksik-semantik, etimologik xususiyatlarini olib berish o'zbek tilshunosligining asosiy vazifalaridan biri. Shu nuqtai nazardan biz quyida oronimik indikatorlarni lug'aviy-ma'noviy jihatdan tahlil etishni lozim deb hisoblaymiz.

Indikatorlarni geografik terminlar doirasida o'rgangan P.G'ulomov avvalgi an'analarga muvofiq tarzda ularni «Toponimlarni hosil qiluvchi mahalliy geografik terminlar», – deb ta'riflaydi³.

¹ Қаранг. Алиев С. Географические названия Казахстана // Геогр. в шк., 1939. – № 4 – С. 38-39; Юзбашев Р.М. Азэрбајҹан чографија терминлари. – Баку, 1966. – 159 б.; Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов // Перспективы развития славянской ономастики. – Москва, 1980. – С. 213-221; Мурзаев Э.М. География в названиях. – Москва: Наука, 1979. – 167 с.; Мурзаев Э.М., Мурзаева В.Г. О новом издании словаря местных географических терминов. – Москва, 1971. – № 4. – С. 22-26; Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. – Москва: Мысль, 1984. – 653 с. Иброҳимов О. География атамалари (лотин алифосида). – Тошкент, 1935; Бектемиров М., Сайдрасулов С. Қисқача русча-ўзбекча география терминлари лугати (лотин алифосида). – Тошкент, 1940; Долимов Н., Кориев М., Ҳасанов Ҳ. ва Мирбобоев М. Қисқача русча-ўзбекча ва ўзбекча-русча географик терминлар лугати. – Тошкент: Ўқув педдавнашр, 1953; Ҳасанов Ҳ. География терминлари лугати. – Тошкент, 1964; Қораев С., Ғуломов П., Раҳимбеков Р. Географик терминлар ва тушунчалар изоҳли лугати. – Тошкент, 1979; Мирортиқ Мирабдулла ўғли. Жўғрофий атамалар лугати. – Тошкент: Фан, 1992. – 56 б.; Ғуломов П.Н. Жўғрофия атамалари ва тушунча-лари изоҳли лугати. – Тошкент; Ўқитувчи, 1994. – 144 б.

² Қаранг. Ғуломов П.Н. Жўғрофия атамалари ва тушунчалари изоҳли лугати. – Тошкент; Ўқитувчи, 1994. – Б. 144.

³ G'ulomov P., Mirkamalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. – Toshkent, 2005. – B. 4.

X.Xolmo'minov esa bunday lug'aviy birliklarni B.A.Serebrennikov, Z.Do'simovlar kabi indikatorlar turkumiga kiritib, ularning oroob'ektlarni ifodalovchi turini oronimik indikatorlar⁴ deb ataydi.

Boysun oronimiyasi materiallarini tahlil qilish asosida oronimik indikatorlar sirasiga quyidagi lug'aviy birliklar kirishi aniqlandi: tog', tosh, qoya, qiya, cho'qqi, qir, tepa, dovon, bel, sirt, adir, ko'tal, ort, do'ng, gaza, dara, tangi, zov, ko'h, kamar, to'da, sang, mo'la, nura, aydar, mas//mos, taxta, alang, qo'l, shoti, ayri, suyri, aqba//ag'ba, yaylov, yayloq, chovra, bitov//pitov, xuchchi, tubak, qaloq, do'm, bo'ktar, shox, qat, qatov, qoboq, singir, jun//jo'na, chag'il//chag'al, chag'at, supa, yona, shiram, g'urum, chambar, qaqir, taqir, dagar, yol, bayir, bet, havol, chalqa, ota, tumshuq, qapug', darvoza, darband, qiz//quiz, baroz//barzu, shirdon, qayir, bo'yin, bo'ynoq, boldir, pushta, orqa, orqavul, burun, oshuv, qayqi, o'y, toqcha, qapchig'ay, jovuz, o'lang, zarang, sangir, dapsan, tarma, ungar va b.

Oronimik indikatorlarga tegishli materiallarning tahlili O'zbekiston hududida qadim zamondan beri yashagan va yashab kelayotgan xalqlarning, el-elatlar tillarining tarixi o'z aksini topganligini ko'rsatdi. Oronimik indikatorlar, asosan, etnolingvistik jihatdan turkiy, eroniy (qadimgi so'g'd, fors-tojik), arab, mo'g'ul tillariga mansub lug'aviy birliklardan iborat. Jumladan, tog', qir, tepa, yaylov, qo'l, qashqa kabi indikatorlar turkiy; baroz, shox, dasht, taxta, gaza kabi indikatorlar so'g'diy; ko'h, dara, tangi, to'da, sang, g'urum, chambar, sho'r kabi indikatorlar fors-tojik; aqba, supa, shayit, sahro, burj kabi indikatorlar arab; mo'la, dovon, qapchig'ay kabi indikatorlar mo'g'ul tillariga tegishlidir.

Tuman oronimik tizimida mavjud bo'lgan oronim indikatorlar to'g'rida to'xtalib o'tamiz.

Gaza indikatori. Gaza - orografik tushuncha ifodalovchi termin sifatida - chuqqi, tog`ning toj shaklidagi qoyalari"⁵ ma'nolariga ega. Jumladan, och gaza - oqish qoyalar, tik gaza – cho'qqi, adir; adir-gazalar - adir va tik chuqqilar

⁴ Серебренников Б.А. О методах изучения топонимических названий // Вопросы языкоznания, 1959. – № 6. – С. 37.

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2006. – 1-ж. – Б. 475

tushunchalarini ifodalaydi. S. Korayevning fikricha, bu atama tojik tili lug`atlarida qayd etilmagan bo'lsa-da, u tojik tilidan kelib chiqqanligi ko'rinish turibdi⁶. Tuman hududida bu indikatordan yasalgan oronimlar uchraydi: Gaza, Qizilgaza (b-k), Namozgaza, Gazaqo'ton, Jayragaza;

Do'ng indikatori. Do'ng so'zi orografik termin sifatida —cho'qqisimon balandlik, yer sathidan ko'tarilgan balandlik" tushunchalarini ifodalaydi. Bu termin do'ng shakllida oronimlar yasalishiga xizmat qilgan: Boysun tuman oronimiyasida ham uchraydi. Sarido'ng (balandlik), Do'ngacha (tепа).

Jar indikatori. Jar so'zi oqar suvlar yumshoq tog` jinslarini o'yib ketishidan hosil bo'lган chuqurlik shaklidagi orografik obyektlarni ifodalaydi. Jarlar, asosan, Lyoss (nemischa - sargish, mayda zarrali, bo'sh tog` jinsi), lyossimon qumoqdan tuzilgan baland tekisliklarda, tog` etagi qiyaliklarida ko'п uchraydi. Jarlar oqava va toshlama suvlarni oqizib qo'yish natijasida ham vujudga keladi. Jarning uzunligi bir necha o'n km, kengligi va chuqurligi bir necha o'n metr bo'lishi mumkin. Uzbek tili izohli lug`atida keltirilishicha, jar [forscha - årning chuqur, o'yiq joyi] - chetlari o'pirilgan chuqur soylik; chuqurlik⁷. Kelib chiqishiga ko'ra eroniylarga tillarga mansub deb qaraladigan bu so'z uzbek tiliga apellyativ sifatida o'zlashgan va faol qo'llanadi. Jar so'zidan orografik termin sifatida oronimlar yasalgan va hozir ham yasaladi. Shu jihat bilan u faol oronimik indikator xisoblanadi: Oqjar (jar, adir), Jarko'chgan (тепа).

Dara indikatori. Kelib chiqishiga ko'ra fors-tojikcha bo'lган bu so'z orografik atama sifatida tog`larda qattiq tub jinslarning daryo yuvishi natijasida hosil bo'ladigan tor va chuqur soy, vodiylar ma'nolarida qo'llanadi. Dara ba'zan år yuzasi yorilganda tiktonik yo'l bilan ham vujudga keladi. Bu tushuncha O'zbekiston tumanlarida dara, soy, soylik, tangi deb xam ataladi⁸. Uzbek tili izohli lug`atida keltirilishicha, bu so'z ikki tog` oraligidagi uzun, nisbatan tor,

⁶ Караев С. Опыт изучения топонимии Узбекистана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1969.
- С.26.

⁷ Географик терминлар ва тушунчалар изохли лугати (тузувчилар: Караев С., Фулемов П., Рахимбеков Р.). - Тошкент, 1979. - Б. 60.

⁸ Географик терминлар ва тушунчалар изохли лугати (тузувчилар: Караев С., Фулемов П., Рахимбеков Р.). - Тошкент, 1979. - Б.47.

chuqur joy; jarlik ma'nolarida qo'llanadi⁹. U indikator sifatida oronimlar va oronimlardan kelib chiqqan boshqa turdag'i obyektlar nomlarida uchraydi: Bekdara, Govdara, Temirdara, Qoplondar, va b.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, toponimlarni obyektning turlari bo'yicha tasniflash eng oddiy va aniq usul sanaladi.

Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari

⁹ Узбек тилининг изохли лугати. - Тошкент: Узбекистон миллий энциклопедияси, 2006. - 1-ж. - Б. 556.